

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi: 32**

FANLAR:

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1701336**

Toshkent – 2017

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. So'z asosi imlosi fonetik hodisani keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan so'z yasovchi qoshimchalarini aniqlang.  
1) -la; 2) -qi; 3) -ar; 4) -ay; 5) -illa  
A) I, 2, 4, 5 B) I, 2, 3, 4 C) I, 2, 3, 4, 5 D) 2, 3, 4, 5
2. Sariq rang ozodlikka va kuch -quvvatga intilish, ochiqlik, faollik, shuningdek, hayotga umidvorlik ramzdizir.  
Ushbu gapda yasalish asosi yasama sifatga mansub bo'lgan so'z(lar) qanday sintaktik vazifa(lar)ni bajargan?  
A) ega, to'ldiruvchi  
B) to'ldiruvchi, aniqlovchi  
C) kesim  
D) aniqlovchi
3. Qaysi gapda tobe va hokim qismlari bir xil so'z turkumidan yasalgan sodda yasama so'zlar bilan ifodalangan to'ldiruvchili birikma mavjud?  
A) Insonda hayotning mohiyatini tushunish qobiliyati tarixni anglashdan boshlanadi.  
B) Saxiylik kishilar o'rtaсидаги ishonch va muhhabbatdan hosil bo'ladi.  
C) Olingan bilimlarni mustahkamlashga har doim intilmog'imiz darkor.  
D) Bu so'roq qarshisida shaxsiy yetishmovchiliklarimni, turmush og'irliliklarini unutaman.
4. Qaysi gapda qatnashgan o'zaro shakldosh qo'shimchalar urg'u olish yoki olmasligiga ko'ra farq qiladi?  
1. Kechgi taom payti tog'da ko'chki bo'lganligi haqida xabar berildi. 2. Bu yigitcha o'zini oqlashga tirnoqcha nasos topolmadi.  
3. Qat - qatgina qatlama, aqling bo'lsa, tashlama. 4. Qadrdon kundaligim, senga hech bir so'z yozmaganimga ancha bo'ldi, mana, bugun qalamdon ichidagi qalamimiga yana qo'l uzatdim.  
A) I, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 2, 3 D) I, 4
5. **Jadval** so'zidagi l undoshi qaysi xususiyatiga ko'ra boshqa undoshlarning hech qaysisi bilan bir umumiylar guruhiha mansub bo'la olmaydi?  
A) hosil bo'lish o'rniiga ko'ra  
B) jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra  
C) hosil bo'lish usuliga ko'ra  
D) shovqinli yoki sonorligiga ko'ra
6. O'qituvchi bolalarini nazmdan xabardor etish maqsadida "Guliston" va "Bo'ston" kitoblarini mustaqil mutolaa qilishga ruxsat berdi.  
Gapda ishtirot etgan to'ldiruvchilar haqidagi noto'g'ri fikrni toping.  
A) Aniqlovchilarining to'ldiruvchiga tobelanishi kuzatiladi.  
B) Gapda nomustaqlil to'ldiruvchilar ishtirot etgan.  
C) Vositali to'ldiruvchining vositasiz to'ldiruvchiga tobelanishi kuzatiladi.  
D) Vositasiz hamda vositali to'ldiruvchining holga tobelanishi kuzatiladi.
7. Hol ergash gapli qo'shma gap haqidagi noto'g'ri hukmni aniqlang.  
A) Har doim bosh gap oldin, ergash gap keyin keladi.  
B) Hol ergash gapli qo'shma gaplar sabab va maqsad ma'nosini anglatganda ergashituvchi bog'lovchilar va deb so'zi yordamida bog'lanishi mumkin.  
C) Hol ergash gapli qo'shma gap nisbiy so'zlar vositasida bog'lana oladi.  
D) Hol ergash gapli qo'shma gap qismlari bog'lovchi vazifasidagi so'z bilan bog'lana oladi.
8. Quyidagi qaysi fe'llarning yetakchi morfemasi ot so'z turkumiga oid so'z bilan ononim bo'la oladi?  
1) inmoq; 2) yashirimmoq; 3) chaqmoq; 4) saqlamoq; 5) qopmoq  
A) I, 4, 5 B) I, 2, 3, 5 C) 3, 4, 5 D) I, 5
9. Qaysi javobdagagi barcha fe'llarning asosi omonimlik xususiyatiga ega?  
A) Behudaga dori ichishni qo'yсангиз, dardingiz arib, sog'ayarmidingga?  
B) Bog'bon uni so'ligan deb guman qildi-yu, yulib tashladi.  
C) Jayron tog'dan tog'ga o'tib, qayerga borishini bilmasdi.  
D) Karimbek mashinani yo'lga chiqarib, qishlog tomon yurdi.
10. Quyida berilgan necha so'zning ma'nosi metonimiya usulida ko'chishi mumkin?  
**samovar, ko'zoynak, zal, qadah**  
A) 3ta B) 2ta C) 1ta D) 4ta
11. Agarda yolg'onдан bersa guvohlik,  
Uning ham gunohin kechirmsa Xoliq.  
Shu to'rtta gunohdan kim bo'lsa foriq',  
Bilingki, ularning manglayi yorug'.

- Ushbu she'riy parchada olmoshlarning necha ma'nou turli qatnashgan?  
A) I B) 3 C) 4 D) 2
12. Ravishning bir ma'nou turiga oid so'zlar berilgan javobni aniqlang.  
A) oldinda, olg'a, bir lahzada  
B) hamisha, zo'rg'a, kecha-kunduz  
C) qasddan, noilaj, jinday  
D) birdan, yayov, tasodifan
  13. Olmoshning faqat bir ma'noviy guruhiga mansub so'zlar qatnashgan javobni aniqlang.  
A) Tog'asining shu odati sabab o'g'li Haydar ham, qizi Tohira ham bu xonadondan bezib ketishdi.  
B) Mana buni aytса bo'lar Eng olyi, zo'r muammo! O'rab oldi uni beshov, Miq etmasdi ammo.  
C) Men o'z fikrimni tushuntirib berishga harakat qilyapman, lekin siz uni eshitishni xohlamayapsiz.  
D) Agar u guzarda hassasini do'qillqtib o'tib qolsa, hamma barobar qalqib, to'o'tib ketguncha ta'zimda turadi.
  14. Taqlid so'z eganining aniqlovchisi vazifasini bajargan gapni aniqlang.  
A) Jigarim otashga tegardi jiz-jiz, Sochlарim oqargan shunda, ehtimol.  
B) Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda qo'ng'ir-qo'ng'ir ovozdan uyg'onim ketdim.  
C) Qirlarning g'ir-g'ir shamoli, o'pkalarga moydekk tuyilgan totli havosi hammamizning ruhimizni ko'tarib yubordi.  
D) Chiqib ketayotganida chol-kampir pichir-pichir qilayotganini sezdim.
  15. Berilgan gap turini aniqlang.  
Inson hayoti shaxmat taxtasidagi piyodaning yurishiga o'xshaydi: goh qora katakdан, goh oq katakdан o'tadi.  
A) uyushiq bo'laklı sodda gap  
B) ayiruv munosabatlı bog'langan qo'shma gap  
C) aralash murakkab qo'shma gap  
D) bog'lovechisiz qo'shma gap
  16. Qaysi javobdagagi juftlik o'zaro bir umumiylar ma'noni ifodalay olmaydi?  
A) ganch-boylik B) gangimoq-esankiramoq C) norg'ul-barzangi D) tanti-mard
  17. Sizning bu hayotda orzularingiz ko'zlagan maqsadingiz qiladigan ishlarining ko'p lekin hech qachon unutmangaki sizning eng buyuk eng muqaddas vazifangiz yurtimiz istiqololini xalqimiz ozodligini ko'z qoraschig'iday asrashdir.  
Ushbu gapda tushirilgan vergullarning nechta faqat uyushgan bo'laklar o'rtaaside ishlatalidi?  
A) 5 B) 3 C) 4 D) 2
  18. Kim bo'lsa hasadchi, yuragi qaro,  
Ko'rmas yaxshilarga yaxshilik ravo.  
Ushbu parchada qanday munosabatlil so'z birikma(lar)ida tobe qism ham, hokim qism ham yasama so'zlar bilan ifodalangan?  
A) boshqaruv B) bitishuv C) boshqaruv va bitishuv D) moslashuv va boshqaruv
  19. Ikki o'rinda mustaqil to'ldiruvchi, ikki o'rinda nomustaqlil to'ldiruvchi ishtirot etgan gapni aniqlang.  
A) Yer qor va yomg'ir namlarini yig'ib, kelgusi yil bosili uchun asrab turadi, o'zida kuch to'playdi.  
B) Ona tilimizning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish uchun uning so'z boyligini bilishgina kifoya qilmaydi.  
C) Bobom shirinsozlik har qanday baloni qaytarishga qodirligini aytadi.  
D) Shoir xalqni og'ir sinovlar, ulug' o'zgarishlar jipslashirishini, uning kuch-qudratini imtihon qilishini yozadi.
  20. Qaysi gapda to'rtta holli birikma mavjud?  
A) Ertalabdan boshlangan yomg'ir kun bo'yini tinmay yog'di.  
B) Ilm bolaligingga to'g'ri yo'lini tanlab olishingga, ulg'ayganingda esa qoqilmasligingga doimo ko'maklashadi.  
C) Kasal bo'laverGANidan xiyoI munkayib qolgan Oyxol momo Akromni ko'rishi bilan mahkam quchoqlab oldi.  
D) Sening porlab turgan ko'zlarining har gal ko'rganimda yuragim beixtiyor yayrab ketadi.
  21. Berilgan she'riy parchada ot turkumiga mansub so'zlar qanday usul(lar) bilan hokim so'zga tobelangan?  
Jazzi go'dak, sen tug'ilding, sen uchun,  
Kim belanchak yasab turur shu damda,

- Kimdir senga uchqur tulpor egarlar,  
Kimdir senga hassa yo'nar shu damda.  
A) *bitishuv, boshqaru* B) *boshqaru* C) *moslashuv, bitishuv* D) *moslashuv*
22. Qaysi gapda ham ot, ham sifat yasovchi qoshimcha bilan omonim bo'la oladigan shakl yasovchi qoshimcha qatnashmagani?  
A) *Sotqinlarga safimizda o'r'in yo'q.*  
B) *Ota olov va suv girdobkina ozodlik maydoniga chiga oladigan o'g'li borligidan g'ururlanar edi.*  
C) *Chaqin bo'lma, bo'lma guldurak.*  
D) *Ko'chaning narigi yuzidagi do'konga bordik.*
23. Yasalish asosi ham, yasalma ham bir turkumga oid sodda yasama so'z(lar) qatnashgan gapni belgilang.  
A) *O'zini hurmat qilmagan odamdan yaxshilik kutma.*  
B) *Yozuvchi kishilarga ta'sir etishi uchun uning o'zi izlanuvchan, asari ham izlanishdan iborat bo'lishi shart.*  
C) *Qo'li bog'liq yashashdan o'lim a'lodir.*  
D) *Kimki tinch yashashni istasa, pastkash odam bilan aslo do'stlashmaydi.*
24. U akalari bilan suvsiz cho'lga suv chiqaribdi. Hamma yerni gullagan bog'ga aylantiribdi. Shunda yurtni sonsiz yov bosibdi. Dushmanlar ekinzorlarni ayovsiz paymon qilishibdi, daraxtlarni yoqib yuborishibdi.  
Ushbu gapdagisi yasama so'zlar sonini belgilang.  
A) 7 B) 5 C) 4 D) 6
25. Zavqiy hayotiga oid ma'lumot berilgan javobni belgilang.  
A) *Chimyonda maktabdorlik, shuningdek, kosiblik bilan shug'ullangan.*  
B) *Onasi Oyshabibi o'g'lida adabiyotga nisbatan ilk havaslarни uyg'otgan.*  
C) *Shoirning o'z o'g'lili qo'li bilan tuzgan devoni uning vafotidan so'ng turmush o'rtoq'i Xayrunniso tomonidan Qashqarga olib ketilgan.*  
D) *Otasi Akmal taxallsi bilan ijod qilgan.*
26. Iloli kelmasin senga mahosil,  
Qaytayin, bo'lindi maqsudim hosil,  
Yurarga quvvating, holing qolmasa  
Kel, orqamga, ko'tarayin bir fasl.  
Bu parchada qaysi asari qahramoni kimga murojaat qilgan?  
A) *"Kuntug'mish" dostonida Kuntug'mish Xolbekaga*  
B) *"Alpomish" dostonida Barchin Hakimbekka*  
C) *"Ravshan" dostonida Zulkumor Ravshanga*  
D) *"Rustamxon" dostonida Rustam Oftoboyimga*
27. Abayning qaysi asari doston janriga mansub emas?  
A) *"Iskandar"*  
B) *"Azim rivoyati"*  
C) *"Boy bolasi bilan kambag'al bolasi"*  
D) *"Ma'sud"*
28. Qaysi shoir odamlarning zlzila paytidagi ruhiy holatini  
"Asablar tuproqqa cho'kkani edi tiz" tarzida bergen?  
A) *Maqsud m Shayxzoda* B) *Erkin Vohidov* C) *Abdulla Oripov* D) *Shuhrat*
29. "... maktabdan chiqarib olib, qizimga Ko'kqamish ko'lida qo'y sog'dirib, chovachilik ilmini o'rgatayin, qo'y sog'moqqa usta bo'lsin".  
Xalq dostonlaridagi qaysi ota o'z farzandi haqida shunday qayg'urgan?  
A) *Boyo'ri* B) *Avazxon* C) *Boysari* D) *Shoir vazir*
30. Qoplonbek va Oymomo Tog'ay Murodning qaysi asari qahramonlari hisoblanadi?  
A) *"Ot kishnagan oqshom"*  
B) *"Otamdan qolgan dalalar"*  
C) *"Oydinda yurgan odamlar"*  
D) *"Yulduzlar mangu yonadi"*
31. Menga yaxshi dedi yor birla o'lmak,  
Na lozim g'am bilan dunyoda qolmak!  
Shu so'zni aytti, tig' urdi o'zig'a,  
Ko'rinnmay qoldi keng olam ko'zig'a.  
Ushbu she'riy parchada qaysi adabiy qahramon holati tasvirlangan?  
A) *Farhod, "Farhod va Shirin"*  
B) *Majnun, "Layli va Majnun"*  
C) *Suhayl, "Suhayl va Guldursun"*  
D) *Suhayl, "Sab'ayi sayyor"*
32. "Gul yaprog'i asalga tushgandek, uni beshikka bog'ladilar. Uni baxt bilan saodat doya singari odat bo'yicha tarbiyaladilar; bir lahma ham undan bexabar qolmang, ko'z qorachig'idek asradilar. Uni ko'z yoshini saqlagandek ko'zda asradilar".  
Ushbu parchada qaysi adabiy qahramon go'dakligi haqidagi she'riy misralarning nasriy bayoni berilgan?  
A) *Farhod* B) *Qays* C) *Layli* D) *Shirin*
33. Quyidagi parcha "Zarbulmasaldagi qaysi qahramonga aloqador?  
"... yaxshi ko'rgan to'ppisini tez oqar suvga oqizibdi. Necha jahd bilan ololmay, nochor mahrum bo'lib, aytar erdikim: Yo'qolg'an xo'b bo'ldi. Boshimg'a tor kelyotgan edi".  
A) *Ahur qassob* B) *Mulla Siddiq kitob* C) *Eshon kalla* D) *Otaboy Amin*
34. Qaysi dramatik asarda "Bu kecha tushimda payg'ambarni ko'rdim, sizni so'rab yubordilar", - deya xushomadgo'yligi evaziga chopon kiygan obraz uchraydi?  
A) *"Mehrobdan chayon"* B) *"Advokatlik osonmi?"* C) *"Abulfayzon"*  
D) *"Sohibqiron"*
35. Berilgan tarixiy asarlardan qaysi biri Ogahiy qalamiga mansub emas?  
A) *"Zubdat ut-tavorix"* B) *"Gulshani davlat"* C) *"Ravzat us-safo"* D) *"Riyoz ud-davla"*
36. Junun dashtini sargardonidurmen,  
Rafiqim ushbu vodiya quyun bas.  
Baytda qanday she'riy san'at turi qo'llangan?  
A) *takrir* B) *tanosub* C) *talmeh* D) *tajnis*
- ### BIOLOGIYA
37. Quyonlarda quloq suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar quloq suprasining uzunligi 24 sm li  $A_1A_1A_2A_2$  genotipli urg'ochi quyon va quloq suprasining uzunligi 16 sm li  $a_1a_1A_2a_2$  genotipli erkak quyon bilan chatishtirilsa, avlodning necha foizini quloq suprasining uzunligi 20 sm li quyonlar tashkil qiladi?  
A) 25 B) 75 C) 50 D) 12,5
38. Tishlarning qoramit rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchisi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oиласида tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu olida tug'iladigan farzandlarning necha foizida belgining faqat X xromosoma orqali irtisylanadigan turi mavjud bo'ladi?  
A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning mallasi, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrangi, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishi ta'minlasa,  $AaBb$  x  $aaBb$  genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilgandan olingan avlodning genotip (I) va fenotip (II) nisbatlarini aniqlang.  
A) *a-3:I:2:I:1; b-4:2:I:1*  
B) *a-1:I:1:3:I:1; b-2:4:I:1*  
C) *a-2:2:2:I:1; b-3:2:2:I*  
D) *a-1:2:I:1:2:I; b-3:I:3:I*
40. Ma'lum bir DNK molekulasi 114 ta nukleotiddan iborat, undagi vodorod bog'lari soni shu DNK molekulasiagi C nukleotidlari sonidan 4 marta ko'p bo'lsa, DNK tarkibidagi vodorod bog'lari sonini toping.  
A) 126 B) 152 C) 180 D) 138
41. 1 molekula glukozaning C, H, O atomlari orasida to'plangan energiya miqdori mitoxondriyada necha molekula fosfat kisolotani biriktirishga sarflanadigan energiya miqdoriga teng?  
A) 35 B) 180 C) 70 D) 140
42. O'simlik gulining tugunchasida 60 ta arxeosporaning ko'payishi natijasida hosis bo'lgan tuxum hujayrani urug'lantirish jarayonida nechta yetilgan chang donasi qatnashadi?  
A) 120 B) 52 C) 36 D) 60
43. Albitsiya qaysi bo'limga (a), kakra qaysi sinfga (b) va kartoshka qaysi turkumga (c) mansub?  
A) *a-ikki urug' pallatilar; b-lolasimonlar; c-baqlajon*  
B) *a- magnoliyatoifalar; b-lolasimonlar; c-baqlajon*  
C) *a-lolasimonlar; b-magnoliyatoifalar; c-ituzum*

- D) *a-gulli o'simliklar; b-ikki urug' pallalilar; c-baqlajon*
44. Quyidagi berilganlardan noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.  
 1) sil tayoqchasi hujayrasidagi halqasimon DNK membrana bilan o'ralmagan; 2) xongul hujayrasi membranasi oqsil va ikki qavat lipid molekulalaridan iborat; 3) loviya urug'i hujayrasidagi donador endoplazmatik to'r lipid sintezini amalga oshiradi; 4) ko'k yashil suv o'tlarining hujayralari erkin azotni toplash xususiyatiga ega; 5) oq po'panak tanasi bir yadroli ko'p hujayralardan iborat; 6) batsidiya hujayralarida lixenin, amilaza, turli vitamin va fermentlar uchraydi.  
 A) I,6 B) 2,4 C) 3,5 D) I,3
45. Paleozoy (a) va mezozoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.  
 1) qushlarni issiqqonlilik; 2) urug'li o'simliklarda chang yo'li va urug; 3) hasharotlarda qanon; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar; 5) suteimizuchilarda to'rt kameralli yuruk; 6) sudralib yuruvchilarda qalin po'choq bilan qoplangan tuxum  
 A) a-3,4; b-1,2  
 B) a-2,6; b-1,5  
 C) a-3,4; b-5,6  
 D) a-1,3; b-2,5
46. Organizm (a) va biogeotsenozi (b) darajadagi hodisalarini aniqlang.  
 1) gomologik xromosomalar orasida konyugatsiya jarayoni; 2) kapalak qurtining metamorfozi; 3) genlar dreyfi; 4) translokatsiya; 5) lishaynikda suvo't va zamburug'ning o'zaro munosabati; 6) qirg'ovulning kenja turning paydo bo'lishi; 7) yaylovda o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati  
 A) a-3,4; b-7 B) a-2,6; b-3 C) a-2,5; b-2 D) a-1,2; b-3,5
47. Birlamchi konsument (a), ikkilamchi konsument (b) umurtqali organizmlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 1) kojan; 2) ko'l baqasi; 3) O'rta osiyo toshbaqsi; 4) soxta kurakburun; 5) chuchuk suv gidersi; 6) botqoq toshbaqsi; 7) zlatka; 8) kabarga; 9) termit; 10) karkidon  
 A) a-4,7; b-1,2  
 B) a-6,10; b-3,4  
 C) a-8,10; b-1,6  
 D) a-7,9; b-4,5
48. Yoz oyalarida ko'p terlash natijasida ko'p suyuqlik yo'qotishi uning ichki muhitini kimyoviy tarkibining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bu o'zagaruvchanlikning qaysi turiga misol bo'ladi?  
 A) *genotipik-ontogenetik*  
 B) *fenotipik-ontogenetik*  
 C) *genotipik-rekombinativ*  
 D) *fenotipik-modifikatsion*
49. Bosh miyaning stvol qismida (a) va orqa miyada (b) joylashgan vegetativ nerv sistemasi markazlarining funksiyalarini aniqlang.  
 1) yurakning minutlik sistolik hajmini oshiradi; 2) o'pkalar ventilatsiyasini kuchaytiradi; 3) ko'z qorachig'ini kengaytiradi; 4) me'da shirasi ishlab chiqarilishini kuchaytiradi; 5) siyidik pufagi muskullarini bo'shastiradi; 6) siyidik pufagi muskullarini qisqartiradi  
 A) a-4; b-1,2 B) a-1; b-3,6 C) a-2; b-4,5 D) a-5; b-2,4
50. Odam yuragiga tegishli to'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
 A) *o'ng bo'l macha qisqarganda uch tavaqali klapan yopiladi*  
 B) *chap qorincha qisqarganda arterial qon o'pka arteriyasiga chiqadi*  
 C) *o'ng qorincha qisqarganda venoz qon uortaga chiqadi*  
 D) *chap bo'l macha qisqarganda ikki tavaqali klapan ochiladi*
51. Odamdagagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.  
 1) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichesmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskulini bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskulini hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirok etadi  
 A) I,4,5 B) I,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odam organizmda ishlab chiqriladigan oqsil (a) va lipid (b) tabiatiga ega gormonlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilagan?  
 1) tripsin; 2) insulin; 3) androsteron; 4) pepsin; 5) somatotrop; 6) melanin; 7) estrogen; 8) xolesterol  
 A) a-2,5,6; b-6,8  
 B) a-4,6; b-2,5  
 C) a-1,5; b-7,8
- D) a-2,5; b-3,7
53. Sezgi analizatorlari haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.  
 A) *Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siyaplashni va og'riniqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.*  
 B) *Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.*  
 C) *Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilimfa suyuqligi bo'ladi.*  
 D) *Harakat analizatorining olyi nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'inining orqa markaziy egatida joylashgan.*
54. Gidrasimonlar qaysi hayvonlardan kelib chiqqan (a), gidrasimonlardan qaysi hayvonlar (b) kelib chiqqan ?  
 A) a- koloniya bo'lib yashovchi geterotrof bir hujayralilardan; b- korall poliplar  
 B) a- koloniya bo'lib yashovchi poliplardan; b- meduzalar  
 C) a- yashil pigmentga ega bo'lmagan koloniya bo'lib yashovchi ko'p hujayralilardan; b- meduzalar  
 D) a- koloniya bo'lib yashovchi avtotrof bir hujayralilardan; b- meduzalar
55. Daryo qisqichaqasi organlari ularning soni bilan juftlang.  
 a) 10ta; b) 8 ta; c) 6ta; d) 4ta; e) 2ta  
 1) murakkab ko'zlar; 2) dum suzgichi; 3) pastki jag'lari; 4) haqiqiy yurish oyoqlari; 5) qisqichlari; 6) ikki shoxli qorinoyoqlari; 7) mo'ylovlar; 8) jag' oyoqlari; 9) yuqori jag'lari  
 A) a-6; b-4; c-8; d-3,7,9; e-1,2,5  
 B) a-6; b-4; c-8; d-2,3,7; e-1,5,9  
 C) a-6; b-4; c-8; d-2,7,9; e-1,3,5  
 D) a-6; b-4; c-8; d-3,5,9; e-1,2,7
56. Bosh skeletsizlarning bosh skeletlilardan farqini aniqlang.  
 1) nerv sistemasi nerv nayidan iborat; 2) ichki skelet mavjud emas; 3) bosh va orqa miya markaziy nerv sistemasini hosil qiladi; 4) umurtqa pog'onasi rivojlanmagan; 5) qon aylanish doirasi yopiq; 6) skeleti suyak va tog'aydan iborat  
 A) I,4 B) 3,5,6 C) 2,4 D) I,2,5
57. Tripanosoma va pichan batsillasi uchun umumiy bo'lган xususiyatlarni aniqlang.  
 A) *Hayotning hujayraviy shakli, irlsiy axboroti sitoplazmadagi halqasimon DNKda joylashgan.*  
 B) *Bir hujayrali organizm, hujayra qobig'i xitindan iborat.*  
 C) *Yadroси ikki qavat membrana bilan o'ralgan, reduplikatsiya jarayoni sitoplazmada kechadi.*  
 D) *Membranasi ikki qator lipid va oqsil molekulalaridan iborat, ribosomasi sitoplazmada translyatsiyada qatnashadi*
58. Yirtqich umurtqasiz (a) va o'txo'r umurtqali (b) hayvonlarni aniqlang.  
 1) malla shomshapalak; 2) zlatka; 3) falanga; 4) tipratikan; 5) aureliya; 6) tillako'z; 7) bizon; 8) qaldirg'och; 9) hasva qandalasi; 10) karkidon  
 A) a- 3, 9; b-4, 10  
 B) a- 5, 6; b- 7, 10  
 C) a- 3, 5; b-1, 8  
 D) a- 2, 6; b- 4, 8
59. Golji apparatiga ega bo'lган kasallik qo'zg'atuvchilarni aniqlang.  
 1) tripanosoma; 2) gommoz qo'zg'atuvchisi; 3) vertisillium; 4) qorakuya; 5) bezgak paraziti; 6) quturish kasalligi qo'zg'atuvchisi; 7) qoqshol qo'zg'atuvchisi; 8) qizilcha qo'zg'atuvchisi; 9) leyshmaniya qo'zg'atuvchisi; 10) ichburug' amyobiasi  
 A) I,6,10 B) 2,5,7 C) 8,9,10 D) I,3,4
60. Nukleoproteinlari yadro va sitoplazmada (a), faqat sitoplazmada (b) joylashgan organizmlarni juftlab ko'rsating.  
 1) herpes; 2) exinokokk; 3) batsilla; 4) achitqi; 5) ossillatoriya; 6) xlorella; 7) xrokokk; 8) batsidiya; 9) bakteriofag; 10) OITV  
 A) a-1,9,7; b-4,6  
 B) a-4,6,8; b-3,5  
 C) a-3,7; b-2,6  
 D) a-3,10; b-4,6
61. Orangutan somatik hujayrasida sodir bo'ladigan mitoz jarayoni haqida noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.  
 1) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 96 ta;  
 2) anafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 96 ta;

- 3) profazada ikki xromatidali autosomalar soni 46 ta;  
 4) anafazada xromosomalar soni 96 ta; 5) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta; 6) interfaza G<sub>2</sub> davrida ikki xromatidali xromosomalar soni 46 ta  
 A) 2,6 B) 1,3 C) 4,5 D) 3,4
62. Bir-biriga yaqin turlardan tashkil topgan sistemali birlikka mansub toza liniyalarni aniqlang.  
 1) jaydari g'o'za; 2) Meksika g'o'zasi; 3) kanop; 4) Misr g'o'zasi; 5) "Yulduz"; 6) "Buxoro-9"; 7) "Omad"; 8) "Toshkent-1"; 9) bo'ritaroq; 10) "Sangzor"  
 A) 5,6,7 B) 1,2,4 C) 7,8,10 D) 1,3,9
63. EcoRI restriktazasi GAATTTC nukleotidlardan ketma-ketligini tanib, GA nukleotidlari orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 110,5 nm uzunlikdagi DNK molekulasi EcoRI restriktazasi orqali A,B,C bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNK molekulusidagi vodorod bog'lar sonidan 2% ga kam. Agar nukleotidlardan orasidagi masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, DNK bo'laklari (A,B,C) tarkibidagi vodorod bog'larning nechiasi G va C nukleotidlari orasida joylashgan?  
 A) 350 B) 450 C) 426 D) 334
64. Gullari qiyshiq, barglari murakkab tuzilgan o'simliklarni aniqlang.  
 1) o'tloq sebagasi; 2) yantoq; 3) yeryong'oq; 4) beda; 5) burchoq; 6) partenosissus  
 A) 1,3,4,5  
 B) 2,4,5,6  
 C) 1,2,3,6  
 D) 2,3,4,6
65. Quyidagi meva turlari qaysi o'simlik navlariga xos ekanligini to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 a) danakli meva; b) rezavor meva; c) don meva; d) qovoq meva; e) ko'sak meva  
 1) qozidastor; 2) Namangan; 3) Zarafshon; 4) gultish; 5) "Samarqand-3"; 6) bargi; 7) buvaki; 8) sanzor; 9) Namangan-34  
 A) a-3; b-1,4,6; c-8; d-7  
 B) a-3; b-1,4,7; c-8; d-2,9  
 C) a-1; b-4,5; c-8; d-7  
 D) a-3; c-8; d-6; e-9
66. Quyidagi meva turlari qaysi o'simlik navlariga xos ekanligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 a) danakli meva; b) rezavor meva; c) don meva; d) qovoq meva;  
 e) ko'sak meva;  
 1) qozidastor; 2) Namangan; 3) zarg'aldoq; 4) gultish;  
 5) Samarqand-3; 6) bargi; 7) buvaki; 8) sanzor; 9) yulduz  
 A) a-3; b-7; c-8; d-6; e-5  
 B) a-3; b-1,4,7; c-8; d-2,9; e-5  
 C) a-1; b-4,5; c-8; d-7; e-2  
 D) a-3; c-1,6; c-8; d-7; e-4
67. Yuksak o'simlikning ikkinchi nomi va qaysi turkumga mansubligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.  
 A) qizilmiya- shirinmiya-burchoqdosh  
 B) meksika g'o'zasi-oddiy g'o'za-g'o'za  
 C) yapon laminariysi-dengiz karami-laminariya  
 D) oq shuvog-turon shuvog i-qoqio 'tdosh
68. Zuxrasoch o'simligining sporadan rivojlanuvchi bo'g'inida qanday qismlar hosil bo'ladi?  
 1) ildizpoya; 2) barg; 3) poya; 4) rizoid; 5) arxegoni; 6) anteridy; 7) murtak; 8) sorus; 9) sporangiy; 10) gameta  
 A) 4,6,10 B) 1,2,3 C) 5,6,7 D) 7,8,9
69. Sho'radoshlar oilasiga kiradigan quyidagi o'simliklarni hayotiy shakli bilan juftlab ko'rsating.  
 a) saksovul; b) teresken; c) qizil lavlagi; d) Turkiston ismalog'i  
 1) bir yillik o't; 2) ikki yillik o't; 3) buta; 4) yarimbuta; 5) daraxt  
 A) a-5; b-4; c-2; d-1 B) a-5; b-4; c-2; d-3 C) a-3; b-1; c-2; d-4 D) a-4; b-5; c-1; d-2
70. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari aromorfozlar natijasida paydo bo'lgan?  
 1) to'garak chuvalchanglar; 2) qisqichbaqasimonlar; 3) ayiqsimonlar; 4) o'rgimchaklar; 5) qo'lqanotilar; 6) hasva qandalasi; 7) o'rgimchaksimonlar; 8) terili toshbaqa
- A) I,2,7 B) I,3,4 C) 3,5,8 D) 3,6,7
71. Harakatlanuvchi tanlanishga xos bo'luman ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 1) muhit deyarli o'zgarmagan sharoitda amalga oshishi; 2) kaynazoy erasi, uchlamchi davrning oxirida kunlarning kekin sovushi natijasida tuxum qo'yuvchilar kamayib, yo'ldoshli sutezemizuvchilar xilma-xilligining ortishi; 3) turlar sonining ortib borishi; 4) tur doimiyligining saqlanishi  
 A) 2,3 B) 1,3 C) 2,4 D) 1,4
72. Quyidagilardan ajoddar belgisining takrorlanishiga mos misollar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.  
 1) bug'doyiq, marvaridgul, qirquloqlar ildizpoyasidagi qobiqlar; 2) otning ikkinchi va to'rtinchchi barmoqlar; 3) uch juft emchakli buzoqchaning tug'ilishi; 4) to'riq otlarda xira chiziqlarning paydo bo'lishi; 5) kitning dumg'aza va orqa oyoq suyaklari; 6) pashsha va chivinning ikkinchi juft qanotlari; 7) yuzi va badani yungli chaqaloqlar tug'ilishi; 8) dumli bola tug'ilishi  
 A) 2,3,4,6 B) 3,4,7,8 C) 1,2,5,6 D) 4,5,6,7

**KIMYO**

73. Polimerlanish darajasi 400 ga teng bo'lgan poliakrilamid molekulasida karbonil guruhlar soni nechta?  
 A) 600 B) 400 C) 1200 D) 800
74. Buten -3-kislota molekulasi tarkibidagi ikkinchi uglerod atomining oksidlanish darajasini toping.  
 A) +1 B) -2 C) -3 D) +3
75. Quyidagi berilganlardan faqat oksidlovchilarini ajrating.  
 1) NaMnO<sub>4</sub>; 2) H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>; 3) H<sub>2</sub>S; 4) CrO<sub>3</sub>; 5) NH<sub>3</sub>; 6) HClO<sub>4</sub>  
 A) 1,2,3 B) 1,2,4,6 C) 4,5,6 D) 1,2,5
76. Bir xil aminokislota qoldig'idan tarkib topgan 48 g dipeptid yetarli miqdordagi xlorid kislota eritmasida gidrolizlanganda 75,3 g modda hosil bo'ladi. Aminokislotani aniqlang.  
 A) valin B) alanin C) glitsin D) leysin
77. 17,8 g α-aminokislotadan 9 g amin hosil bo'lgan bo'lsa, aminokislotani toping.  
 A) *a-amino 2-metilpropan kislota*  
 B) *glitsin*  
 C) *β-aminopropion kislota*  
 D) *α-aminopropion kislota*
78. 15,9 g akrilonitril gidrolizlanishidan necha gramm akril kislota hosil bo'ladi? ( $\eta=0,75$ )  
 A) 43,2 B) 16,2 C) 21,6 D) 28,8
79. 54 g glukoza kuchli oksidlovchilar bilan oksidlanganda olingan kislota necha gramm 12% li o'yuvchi natriy bilan ta'sirlashadi?  
 A) 100 B) 300 C) 200 D) 400
80. sp<sup>3</sup> - gibrid orbitallar soni sp<sup>2</sup> – gibrid orbitallar sonidan 20·N<sub>A</sub> ga ko'p bo'lgan glutar kislota olish uchun necha gramm siklik birikmani (yuqori harorat va kuchli oksidlovchilar ta'sirida) oksidlash zarur?  
 A) 180 B) 85 C) 170 D) 175
81. 500 g 25,1% li natriy gidrofosfat eritmasiga yetarli miqdorda 500 ml ortofosfat kislota eritmasidan qo'shildi. Bunda olingan eritmadagi natriy digidrofosfat tuzining massa ulushi natriy gidrofosfat tuzining massa ulushidan 1,5 martta kam bo'lidi. Qo'shilgan fosfat kislota eritmasining molyarligini (M) aniqlang.  
 A) 0,02 B) 0,04 C) 0,5 D) 0,1
82. Kucherov reaksiyasida etindan nima hosil bo'ladi?  
 A) *etilenglikol* B) *etanal* C) *etanol* D) *eten*
83. Qaysi alkan izomerlari sonining uning tarkibidagi uglerod va vodorod atomlari soni yig'indisiga nisbati 0,25:1 ga teng?  
 A) C<sub>8</sub>H<sub>18</sub>  
 B) C<sub>7</sub>H<sub>16</sub>  
 C) C<sub>9</sub>H<sub>20</sub>  
 D) C<sub>6</sub>H<sub>14</sub>
84. Elektrolitning dissotsiatsiyalanish konstantasi qiymatining o'zgarishi nima(lar)ga bog'liq?

- 1) elektrolit tabiatiga; 2) erituvchi tabiatiga; 3) konsentratsiyaga; 4) haroratga  
 A) *faqat* 4 B) 1,2,3,4 C) 1,2,3 D) 1,2,4
85. Quyidagi berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi?  
 $\text{HF} \rightarrow \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{NH}_3 \rightarrow \text{CH}_4$  a) ortadi; b) kamayadi  
 A) 1-a; 2-b; 3-a B) 1-b; 2-a; 3-b C) 1-b; 2-a; 3-a D) 1-b; 2-b; 3-b
86. 0,5 mol miqdorda olingan  $\text{XY}_2$  va  $\text{AY}$  birikmalarda mos ravishda  $13 \cdot N_A$  va  $5 \cdot N_A$  tadan elektron bo'lsa, X ni toping. X va Y elementlar bitta davrda (berilgan tartibda) ketma-ket joylashgan.  
 A) F B) C C) N D) O
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stekiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.  
 A) 1/9; 2/3; 2/9 B) 2/5; 2/5; 1/5 C) 1/7; 3/7; 3/7 D) 1/4; 1/4; 1/2
88.  $^{102}\text{No} \rightarrow {}^{96}\text{Cm} + x^4\alpha + y^-$  B yadro reaksiyasida 101,5 g No yemirilishidan hosil bo'lgan elektronlar sonini aniqlang.  
 (a-x=249; x+y=9)  
 A)  $1,5 \cdot N_A$  B)  $2 \cdot N_A$  C)  $1,6 \cdot N_A$  D)  $3 \cdot N_A$
89.  $\text{MgSO}_4 \cdot n\text{H}_2\text{O}$  kristallogidratida suvdagi elektronlar soni magniyning elektronlari sonidan 7 martta ko'p bo'lsa, n ni aniqlang.  
 A) 6 B) 10 C) 8 D) 7
90. Noma'lum element tarkibida 35,3 % neytron (jami atom zarrachaga nisbatan) mavjud. Undagi proton va elektron yig'indisi neytronlar yig'indisidan 10 taga ortiq bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.  
 A) F B) Br C) Na D) Ne
91. Harorat  $10^0\text{C}$  ga oshganda reaksiya tezligi 2 marta ortsa ushbu reaksiya harorati  $40^0\text{C}$  dan  $100^0\text{C}$  gacha ko'tarilganda, reaksiya tezligi necha marta ortadi?  
 A) 4 B) 16 C) 8 D) 64
92. 200 g 75% li  $\text{CsOH}$  eritmasiga qancha (ml) suv quyilsa, 1,6 molyalli eritma olinadi?  
 A) 600 B) 575 C) 550 D) 660
93. Tarkibida noma'lum modda saqlangan 120 g eritmaning molyarligi va molyalligi 5 ga teng bo'lsa, eritmaning foiz konsentratsiyasini (%) aniqlang.  
 ( $\rho = 1,2 \text{ g/ml}$  deb hisoblansin)  
 A) 100/2 B) 100/3 C) 100/6 D) 100/4
94. Nitrat kislotalan 20% li va 60% li eritmalar bo'lib, 20% li eritmadiagi kislota massasi 60% li eritmadiagi suv massasidan uch marta kam bo'lsa, ushbu eritmalar aralashtirilganda hosil bo'ladigan eritma konsentratsiyasini (%) aniqlang.  
 A) 38 B) 33 C) 44 D) 51
95. Eritmadagi  $\text{H}^+$  ionlari  $\text{OH}^-$  ionlaridan  $10^{10}$  marta ko'p bo'lsa, eritmaning pOH qiymatini toping.  
 A) 10 B) 12 C) 5 D) 4
96. Quyidagi qaysi moddalar ta'sirlashganda faqat o'rta tuz hosil bo'ladi?  
 A) *natriy gidroksid va vodorod sulfid*  
 B) *alyuminiy gidroksid va sulfat kislota*  
 C) *litiy oksid va xlorid kislota*  
 D) *kalsiy gidroksid va bromid kislota*
97. Sxemadagi barcha noma'lum moddalar tarkibida azot borligi ma'lum bo'lsa, A, C va F moddalarini aniqlang.
- $$\text{H}_2 + \text{N}_2 \xrightarrow[t^0, P]{0_2, kat} \text{B} \xrightarrow[0_2 + H_2O]{} \text{D} \xrightarrow[A]{} \text{E} \xrightarrow[t^0]{} \text{F}$$
- 1)  $\text{H}_2 + \text{N}_2$ ; 2)  $\text{NO}_2$ ; 3)  $\text{NO}$ ; 4)  $\text{HNO}_2$ ; 5)  $\text{HNO}_3$ ; 6)  $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ;  
 7)  $\text{N}_2\text{O}$  8)  $\text{N}_2$   
 A) 4,6 B) 1,8 C) 1,2,7 D) 5,6
98. 200 g 16% li mis (II) sulfat eritmasi to'liq elektroliz qilinganda 17,5% li eritma olindi. Eritmadan necha faraday tok o'tganini aniqlang.
- A) 8 B) 8,4 C) 0,4 D) 2,4
99. 24,1 g noma'lum metall qo'sh oksidi  $\text{H}_2$  yordamida qaytarilganda 7,2 g suv hosil bo'lди. Metallni toping.  
 A) Co B) Cr C) Fe D) Pb
100. 1 mol bariy gidrokarbonat qattiq qizdirilganda uning massasi necha grammga kamayadi?  
 A) 106 B) 62 C) 44 D) 18
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, kadmiyning massasini (g) hisoblang.  
 A) 22,4 B) 11,2 C) 28 D) 16,8
102.  $\text{MeSO}_4$  ning 100 g 10% li to'yingan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadar sovitildi. Natijada 13,9 g  $\text{MeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  cho'kmaga tushdi. Kristallogidratdan kristalizatsion suv to'liq chiqarilsa necha gramm  $\text{MeSO}_4$  qoladi?  
 A) 15,2 B) 3,6 C) 18 D) 7,6
103.  $x\text{CaCO}_3 = y\text{CaCO}_3 + z\text{CaO} + z\text{CO}_2$  ifodada x, y, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatidagi nisbatlari 5:1:4:4  
 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.  
 A) 60 B) 80 C) 75 D) 50
104. Hajmiy nisbatlari mos ravishda 2.5 bo'lgan 15,68 litr (n.sh)  $\text{SiH}_4$  va  $\text{NH}_3$  gazlar aralashmasiga atomlar soni teng bo'lguncha  $\text{SiH}_4$  qo'shildi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasidagi  $\text{NH}_3$  ning hajmiy ulushini toping.  
 A) 2/9 B) 2/7 C) 5/9 D) 5/7
105. Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va  $\text{N}_2\text{O}$  larning hajmlari teng bo'lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatni aniqlang.  
 A) 3:8 B) 3:4 C) 2:1 D) 1:1
106. Quyidagi tuzlar gidrolizga uchraganda neytral muhit hosil qiladiganlarini ajrating.  
 1)  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ ; 2)  $\text{K}_2\text{SO}_4$ ; 3)  $\text{CH}_3\text{COONH}_4$ ; 4)  $\text{NaNO}_2$ ; 5)  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$ ; 6)  $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}$   
 A) 2, 6 B) 1, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 1, 3
107. 1827-yil V.Seyze tomonidan platina Pt(II) ning  $\pi$ -kompleksi olindi.  
 $\text{CH}_2=\text{CH}_2 + \text{K}_2[\text{PtCl}_4] + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Seyze tuzi} + \text{KCl}$   
 Ushbu reaksiyaga muvofiq Seyze tuzining formulasini belgilang.
- A)  $K[\text{C}_2\text{H}_5\text{PtCl}_3]\cdot\text{H}_2\text{O}$   
 B)  $K[\text{C}_2\text{H}_4\text{PtCl}_3]\cdot\text{H}_2\text{O}$   
 C)  $K[\text{C}_2\text{H}_4\text{PtCl}_4]\cdot\text{H}_2\text{O}$   
 D)  $K[\text{C}_2\text{H}_4\text{PtCl}_2]\cdot 2\text{H}_2\text{O}$
108. Noma'lum alken gidrogenlanganda 43,5 g mahsulot olindi, yetarli kislorodda yoqilganda esa 132 g modda hosil bo'ladi. U bromlanganda necha gramm dibromalkan hosil bo'ladi?  
 A) 138 B) 162 C) 151,5 D) 150,4